

## «Xalik» guruhining Yagona komplaens - madaniyati

Olmaota 2021

## **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. «Xalik» guruhi o‘zining biznesi mavjud bo‘lgan barcha hududlarida xalqaro darajadagi xizmatlarni taqdim etadi.
2. «Xalik» guruhi o‘z faoliyatining iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari uchun o‘z mas’uliyatini anglab, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishiga ko‘maklashish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi.
3. «Xalik» guruhi o‘z say-harakatlarini jamiyat uchun tushunarli bo‘lgan ochiq va oshkora biznes yuritishga e’tibor qaratishda «Xalik» guruhining strategik manfaatlariga mos keladigan qulay ichki va tashqi muhitni yaratishga yo‘naltiradi.
4. Komplaens - madaniyati korporativ xulq-atvorning asosiy elementlaridan biri bo‘lib, «Xalik» guruhining Qozog‘iston Respublikasi va xorijdagi obro‘sini mustahkamlash, «Xalik» guruhini umumiy qadriyatlar atrofida birlashtirish, strategik, obro‘-e’tibor, operatsion, komplaens va boshqa xatarlarni kamaytirish imkonini beradi; bu oxir-oqibat kapitallashuvning oshishiga va «Xalik» guruhni maqomining xalqaro miqyosda tasdiqlanishiga yordam beradi.
5. Komplaens - madaniyatini rivojlantirishda «Xalik» guruhi o‘z tajribasiga, Qozog‘iston Respublikasi qonunchiligiga, xorijiy davlatlarning amaldagi qonunchiligiga, shuningdek, Komplaens sohasidagi xalqaro standartlarga e’tibor qaratadi.
6. «Xalik» Guruhining haqiqiy Yagona komplaens madaniyati «Xalik» Guruhida Komplaens madaniyatining asosiy yondashuvlari va standartlarini belgilaydi, shuningdek, «Xalik» Guruhi kompaniyasiga, Qozog‘iston Respublikasi va chet el davlatlari qonunlari, shuningdek, Komplaens sohasidagi xalqaro standartlar qo‘llaniladigan talablarga nisbatan, qonun hujjalariга rioya etilishini ta‘minlash bo‘yicha ishlarni tashkil etishning yagona konsepsiyasini shakllantiradi.
7. Ushbu ichki me’yoriy hujjat «Xalik» Guruhning barcha organlari, tarkibiy bo‘linmalar, mansabdor shaxslari va xodimlari uchun majburiydir.
8. «Xalik» Guruh kompaniyalari o‘zlarining ichki me’yoriy hujjalari o‘zlar joylashgan davlat qonunchiligiga va (yoki) qonun hujjalarda ular uchun belgilangan talablarga zid bo‘lmasdan darajada ushbu ichki me’yoriy hujjatga muvofiqlashtiradilar.

## **2-bob. Atamalar lug‘ati**

9. Ushbu ichki me’yoriy hujjat quyidagi atama va qisqartmalardan foydalanadi:
  - 1) Bank - “Qozog‘iston Xalq banki” AJ;
  - 2) Shirma-banki - o‘zi ro‘yxatdan o‘tgan davlatda (hududda) jismoniy mavjud bo‘lmagan norezident bank;
  - 3) Ichki me’yoriy hujjat - «Xalik» guruhining yagona Komplaens- madaniyati;
  - 4) Volfsberg tamoyillari - xususiy bank sektorida pul yuvishga qarshi kurash bo‘yicha ko‘rsatmalar;
  - 5) «Xalik» Guruhi - Bank va bankning sho‘ba korxonalari;
  - 6) Shirma-kompaniya - o‘zi ro‘yxatdan o‘tgan davlatda (hududda) jismoniy mavjud bo‘lmagan norezident kompaniya;
  - 7) Xalqaro sanksiyalar - har qanday xalqaro tashkilot, xorijiy davlat hukumati yoki xorijiy davlatning vakolatli davlat organi tomonidan qo‘llaniladigan va sanksiyalar qo‘llaniladigan davlat/hudud va/yoki uning rezidentlari bilan moliyaviy va boshqa operatsiyalar, savdoni qisman yoki to‘liq taqiqlashni nazarda tutuvchi siyosiy, diplomatik yoki iqtisodiy xarakterdagи majburlov choralar;
  - 8) JDL/TM – jinoiy daromadlarni legallashtirish (“yuvish”) va terrorizmni moliyalashtirish;
  - 9) JDL/TMQK – jinoiy daromadlarni legallashtirishga (“yuvish”) va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish;
  - 10) FATF tavsiyalari – har bir mamlakatda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni yuvishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar majmui;
  - 11) EI - Evropa Ittifoqi;
  - 12) FATF - Pul yuvishga qarshi kurashuvchi moliyaviy chora-tadbirlar ishlab chiqaruvchi guruh;

- 13) OFAC - AQSH Moliya vazirligining xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi;
- 14) OFAC SDN List/Non-SDN List/SSI List - Amerika Qo'shma Shtatlari tomonidan belgilangan savdo, moliyaviy va boshqa operatsiyalarni amalga oshirishga taqiq/cheklovlardan o'rnatgan shtatlar/hududlar va/yoki ularning rezidentlarining jismoniy va yuridik shaxslar ro'yxati;
- 15) BMT - Birlashgan Millatlar Tashkiloti.

### **3-bob. Asosiy maqsad va vazifalar**

10. Mazkur ichki me'yoriy hujjat Qozog'iston Respublikasi qonunchiliginini, xorijiy davlatlarning amaldagi qonunchiliginini, Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi hujjatlarini, FATF va Volfsberg tamoyillarini, shuningdek, «Xalik» Guruh kompaniyalari tashkiliy tuzilmaning o'ziga xos xususiyatlarini, «Xalik» guruhi kompaniyalari tomonidan mijozlarga taqdim etilayotgan mahsulot (xizmatlar)ning tabiatini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.
11. «Xalik» guruhida yagona komplaens-madaniyatini joriy etish maqsadlari quyidagilardan iborat:
  - «Xalik» Guruh va uning xodimlari tomonidan Qozog'iston Respublikasi qonunchiligiga, ichki hujjatlarga, xorijiy davlatlarning amaldagi qonunchiligiga va komplaens sohasidagi xalqaro standartlarga, shu jumladan Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi hujjatlariga, FATF va Volfsberg tamoyillariga rioya etilishini ta'minlash;
  - «Xalik» Guruhi va uning xodimlari tomonidan Qozog'iston Respublikasi qonunchiligi, shu jumladan vakolatli organning normativ-huquqiy hujjatlari, normativ-huquqiy hujjatlar talablariga, xizmatlar ko'rsatish tartibi, shuningdek, xorijiy davlatlarning amaldagi qonunchiligi va «Xalik» Guruh faoliyatiga taalluqli xalqaro standartlar rioya qilmaslik natijasida yo'qotishlar yuzaga kelishi bilan bog'liq salbiy oqibatlar xavfini minimallashtirish;
  - «Xalik» Guruhi kompaniyalari va xodimlarining noqonuniy faoliyatga jalb etilishining oldini olish;
  - tizimli asosda uni minimallashtirish uchun komplaens-xavfni, shu jumladan JDL/TM xavfini boshqarish bo'yicha yagona guruh ichidagi yondashuvni joriy etish;
  - «Xalik» Guruhi ishbilarmonlik etikasi va standartlariga muvofiq biznes yuritish.
12. Ushbu ichki me'yoriy hujjat «Xalik» Guruhi faoliyatining funksional xilma-xilligi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va quyidagilarga hissa qo'shishga mo'ljallangan:
  - «Xalik» Guruhida komplaens-madaniyatini shakllantirish;
  - «Xalik» Guruhi mansabdor shaxslari va xodimlari o'z faoliyatida ustunlikka qo'yadigan missiya, qadriyatlar, tamoyillar va komplaens-madaniyati me'yorlarini birlashtirish;
  - «Xalik» guruhi faoliyatining komplaens sohasidagi xalqaro standartlarning strategik maqsad va vazifalariga, shu jumladan Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi hujjatlariga, FATF va Volfsberg tamoyillariga muvofiqligini ta'minlash;
  - komplaens- madaniyatini «Xalik» Guruhning manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorligi falsafasi sifatida targ'ib qilish;
  - samarali va sifatlari korporativ boshqaruv va xavflarni boshqarishni ta'minlash;
  - bozor yetakchisi mavqeini mustahkamlash va qo'llab-quvvatlash hamda «Xalik» Guruhida komplaens-madaniyatini oshirish;
  - biznes-jarayonlarning shaffofligini va «Xalik» Guruhi hamkorlari va kontragentlari bilan o'zaro hamkorlik samaradorligini oshirish, Guruh obro'si va imijini mustahkamlash, «Xalik» guruhining investitsion jozibadorligini va biznesni boshqarish sifati oshirish.

### **4-bob. Komplaens - madaniyatining asosiy tamoyillari**

13. Komplaens - madaniyati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:
  - «Xalik» Guruhining korporativ madaniyatining bir qismidir;
  - «Xalik» Guruhi faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi;
  - «Xalik» Guruhi rahbariyatidan tortib uning har bir xodimigacha barcha darajalarda qo'llab-quvvatlanadi, amal qilinadi va rag'batlantiriladi;

- «Xalik» Guruhida komplaens-madaniyatini joriy etish, targ‘ib qilish bo‘yicha say-harakatlarni muvofiqlashtirish;
- «Xalik» Guruhi kompaniyalar bilan komplaens-madaniyati masalalari bo‘yicha axborot almashish;
- «Xalik» Guruhi kompaniyalariga komplaens-madaniyatini joriy etish va targ‘ib qilish bilan bog‘liq muammolarni hal qilishda o‘zaro yordam ko‘rsatish;
- «Xalik» Guruhi tomonidan aksiyadorlar, mijozlar, xodimlar manfaatlarini himoya qilish hamda Qozog‘iston va xalqaro moliya bozorlari barqarorligini ta‘minlash maqsadida qonun hujjatlariga rioya qilish, biznes yuritilayotgan barcha yurisdiksiyalarda amaldagi qonunlar va tartiblarga rioya qilish;
- «Xalik» guruhi tomonidan har qanday shakl va ko‘rinishdagi noqonuniy faoliyatni so‘zsiz va shartsiz qoralash;
- «Xalik» Guruhi va uning xodimlarini qonun buzilishi bilan bog‘liq faoliyatga jalg qilish xavfining oldini olish bo‘yicha o‘z vaqtida va tegishli choralarni ishlab chiqish va ko‘rish.

## **5-bob. Qo‘llaniladigan qonunchilik talablariga rioya qilish**

14. «Xalik» Guruhi ham Qozog‘iston Respublikasida, ham xorijda faoliyat yuritadi, uning faoliyati milliy va xalqaro qonunchilik bilan tartibga solinadi. «Xalik» Guruhi o‘z faoliyatida qo‘llaniladigan qonunlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga rioya qiladi va ular doirasida harakat qiladi.

15. Agar ushbu ichki me'yoriy hujjatda «Xalik» Guruhi kompaniyalar tomonidan yuqori talablar va standartlar belgilangan bo‘lsa, ushbu ichki me'yoriy hujjat qoidalari qo‘llaniladi.

16. Ikki yoki undan ortiq davlatlarning amaldagi qonunchiligi qoidalari o‘rtasida ziddiyat yuzaga kelgan taqdirda, xodimlar ichki hujjatlarda belgilangan tartibda huquqiy nizolarni hal qilish bo‘yicha maslahat olish uchun tashqi yuridik maslahatchiga murojaat qilish huquqiga ega.

## **6-bob. Komplaens sohasida xalqaro standartlar talablariga rioya qilish**

17. «Xalik» Guruhi xalqaro komplaens standartlariga, shu jumladan Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi hujjatlariga, FATF va Volfsberg tamoyillariga amal qiladi va ular doirasida ishlaydi.

18. Bazel qo‘mitasi tomonidan o‘rnatilgan samarali korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish uchun «Xalik» Guruhi quyidagi mexanizm va tamoyillardan, lekin ular bilan cheklanmagan holda foydalanadi, jumladan:

- korporativ boshqaruvning «Xalik» Guruhi faoliyatining miqyosi va xarakteri, tuzilmasi, ahamiyati, xavf profili va biznes modeliga muvofiqligi;
- yagona korporativ madaniyat;
- xavflarni samarali boshqarish tizimi;
- «Xalik» Guruhi rahbariyati va xodimlari faoliyatini nazorat qilish;
- manfaatdor tomonlarni zarur ma'lumotlar bilan ta‘minlash;
- «Xalik» Guruhi faoliyati va tuzilmasi ustidan muntazam tashqi va ichki auditlar o‘tkazilishini ta‘minlash.

19. «Xalik» guruhi o‘z faoliyatida Volfsberg tamoyillari va FATF tavsiyalariga amal qiladi va JDL/TMQK maqsadlarida quyidagi yagona standartlar, tamoyillar va yondashuvlarni qo‘llaydi:

- jinoyatdan olingan daromadlarni “yuvish” va terrorizmning barcha shakllari va ko‘rinishlarida shartsiz va so‘zsiz qoralaydi;
- JDL/TM xavflarini baholaydi va xavfga asoslangan yondashuvni qo‘llaydi;
- mijozlar (ularning vakillari) va benefitsiar mulkdorlarini aniqlaydi;
- mijozlar (ularning vakillari), benefisiar egalari va operatsiyalari to‘g‘risidagi ma'lumotlarni to‘playdi, tekshiradi va saqlaydi;
- xavf-xatar kuchaygan hollarda mijozlarni (ularning vakillarini) va benefitsiar mulkdorlarni, shu jumladan mijozning mablag‘lari manbasini va amalga oshirilgan operatsiyalarni moliyalashtirish manbasini aniqlashni chuqur o‘rganadi;
- mijozlar (ularning vakillari) va benefitsiar mulkdorlar haqidagi ma'lumotlarni yangilaydi;

- mijozlarning operatsiyalari va faoliyatini nazorat qiladi;
- vakolatli organga operatsiyalar bo'yicha hisobot taqdim etadi;
- operatsiya to'g'risidagi xabar yoki tegishli ma'lumotlar vakolatli organga yuborilayotgani/yuborilganligini oshkor etmaydi;
- xalqaro sanksiyalar rejimiga rioya qiladi;
- rahbariyatga aniqlangan xavflar va huquqbazarliklar to'g'risida ma'lumot beradi;
- xodimlarni o'qitadi va xabardor qiladi;
- barcha filiallar, vakolatxonalar va sho'ba korxonalar darajasida JDL/TMQK dasturlarini qo'llaydi;
- JDL/TMQK maqsadlarida ichki nazorat samaradorligini baholaydi.

## **7-bob. Komplaens-xavflarini boshqarish**

20. «Xalik» Guruhi komplaens xavflarini boshqarishning samarali tizimini ishlab chiqadi, bu esa:
- «Xalik» Guruhi kompaniyasining samarali faoliyat yuritishi va uning faoliyati strategiyaga, xavf-profiliga va xavf-ishtahasiga muvofiqligi;
  - «Xalik» Guruhi va uning har bir xodimi faoliyatining Qozog'iston Respublikasi qonunchiligiga, shu jumladan vakolatli organning normativ-huquqiy hujjatlariga, xizmatlar ko'rsatish tartibini tartibga soluvchi ichki hujjatlarga, xorijiy davlatlarning amaldagi qonunchiligiga muvofiqligi; shuningdek, komplaens sohasidagi xalqaro standartlar, jumladan, Bazel hujjatlari Bank nazorati qo'mitasi, FATF va JDL/TMQK sohalari bo'yicha Volfsberg tamoyillariga;
  - «Xalik» Guruhi xalqaro biznes standartlariga, komplaens-xavflarini boshqarish va axloqiy me'yirlarga rioya qilish;
  - xavflarni minimallashtirish, investitsion jozibadorlikni va raqobatdosh ustunlikni oshirish maqsadida komplaens-xavflarni boshqarishning samarali tartiblarini joriy etish.
  - komplaens-xavflarni boshqarish odob, halollik va ochiqlik tamoyillari asosida qurilgan «Xalik» Guruhning umumiy korporativ madaniyatining bir qismidir.
21. Komplaens-xavflarni boshqarish tizimi «Xalik» Guruhning barcha xodimlari tomonidan ta'minlanadi.
22. Komplaens-nazorat qilish bo'linmasi - tarkibiy bo'linmalarning har qanday faoliyatidan mustaqil bo'lgan, funksiyalari ichki audit xizmati funksiyalari, shuningdek tezkor (joriy) faoliyatni amalga oshiruvchi bo'linmalarning funksiyalari bilan birlashtirilmagan tarkibiy bo'linma.

## **8-bob. Ichki nazorat**

23. «Xalik» Guruhi joriy bozor kon'yunkturasi, strategiyasi, aktivlari hajmi va Guruh faoliyatiga mos keladigan ichki nazorat tizimining mavjudligini ta'minlaydi. Ichki nazorat quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan:
- «Xalik» Guruhi faoliyati samaradorligini, shu jumladan xavflar, aktivlar va passivlarni boshqarish samaradorligini ta'minlash, aktivlarning saqlanishini ta'minlash;
  - ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun moliyaviy, normativ va boshqa hisobotlarning to'liqligi, ishonchliligi va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlash;
  - axborot xavfsizligini ta'minlash;
  - «Xalik» Guruhi tomonidan Qozog'iston Respublikasi qonunchiligi talablariga, xorijiy davlatlarning amaldagi qonunchiligiga, shuningdek komplaens sohasidagi xalqaro standartlarga, shu jumladan Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi hujjatlariga, JDL/TMQK sohasi va «Xalik» Guruhning ichki hujjatlari sohasida FATFga, Volfsberg tamoyillariga muvofiqligini ta'minlash.
  - «Xalik» Guruhi va uning xodimlarini noqonuniy faoliyatga, jumladan, firibgarlik, xatolik, noaniqlik, aldov, jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish ("yuvish") va terrorizmni moliyalashtirishga jalb etilishining oldini olish.

## **9-bob. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga ("yuvish"ga) va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish**

24. «Xalik» Guruhi jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirish va terrorizmning barcha ko‘rinishlari va shakllarini so‘zsiz va shartsiz qoralaydi hamda, shu jumladan JDL/TMQK asosida jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish uchun xizmatlar, operatsiyalar va bitimlardan, xalqaro operatsiyalardan foydalanishning oldini olishga qaratilgan qarshi kurashning ichki nazorat dasturlarini amalga oshiradi.

25. «Xalik» Guruhi o‘z faoliyati bilan bog‘liq qonunlar talablariga riosa etilishini ta‘minlashga intiladi va yuqori vijdonlilik madaniyatiga riosa qiladi va «Xalik» Guruhi faoliyatiga nisbatan qo‘llaniladigan qonunlar talablarining har qanday buzilishiga toqat qilmaydi. Bunga, jumladan, JDL/TM xavflarini nazorat qilish, jumladan, ularni o‘z vaqtida aniqlash, oldini olish va samarali choralar ko‘rish kiradi.

26. Shu maqsadda, shuningdek, JDL/TMQK maqsadlarida samarali korporativ boshqaruv tizimini va ichki nazorat tizimini yaratish uchun quyidagi tamoyillarga asoslanadigan JDL/TM xavflarini boshqarish tizimi joriy etildi:

- qonuniylik va axloq;
  - har qanday shaklda va ko‘rinishda JDL/TM ni rad etish va yo‘l qo‘ymaslik;
  - JDL/TM ko‘rinishlariga murosasiz munosabat;
  - JDL/TM bilan bog‘liq jinoiy faoliyatning oldini olishga qaratilgan ichki nazorat dasturining mavjudligi va amalga oshirilishi;
  - mijozlarni (ularning vakillarini) va benefitsiar mulkdorlarni JDL/TMQK qonunchiligiga muvofiq majbuliy tekshiruvdan o‘tkazish va faqat tegishli tekshiruvlar natijasida ularning huquqiy maqomi, faoliyatining huquqiyligi va qonuniyligini tasdiqlaydigan mijozlar bilan tadbirkorlik munosabatlari ga kirishish;
  - JDL/TMQK choralarini ko‘rmaydigan shirkatlar, shirma-banklar va banklar bilan biznes aloqalarini o‘rnatishga yo‘l qo‘ymasligi;
  - vakolati organ va/yoki xalqaro tashkilotlar (BMT, EI) va/yoki mamlakatlar, masalan, AQSH (OFAC SDN List/Non-SDN List/ SSI List) tomonidan ularga nisbatan sanksiyalar qo‘llaniladigan jismoniy va yuridik shaxslarni aniqlash va ushbu shaxslar bilan hamkorlikni boshlash yoki ular bilan bir martalik operatsiyalarni amalga oshirishga yo‘l qo‘ymaslik;
  - «Xalik» Guruhi mansabdor shaxslari va xodimlarini JDL/TMQK bo‘yicha ishlarga faol jalb qilish.
27. JDL/TM qonunchiligi talablariga, Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi hujjatlarida, FATF va Volfsberg tamoyillarida keltirilgan tavsiyalarga riosa qilish va «Xalik» Guruhi JDL/TM xavflarini boshqarish tizimini joriy etish maqsadida quyidagilarni belgilaydigan ichki hujjatlarni ishlab chiqdi va tasdiqlaydi:
- JDL/TMQK doirasida ichki nazorat tizimini tashkil etishning asosiy maqsadlari, vazifalari, tamoyillari;
  - JDL/TM xavflarini boshqarish va JDL/TMQK maqsadlarida ichki nazoratni tashkil etish dasturi;
  - mijozlarni (ularning vakillarini) va benefitsiar mulkdorlarni, shu jumladan mijozning mablag‘lari manbasini va amalga oshirilgan operatsiyalarni moliyalashtirish manbasini aniqlashni lozim darajada tekshirishga yagona yondashuv;
  - jinoiy daromadlarni legallashtirish (“yuvisht”) va terrorizmni moliyalashtirishning tipologiyalari, sxemalari va usullariga mos keladigan xususiyatlarga ega murakkab, noodatiy/shubhali operatsiyalar va operatsiyalarni o‘rganishni o‘z ichiga olgan mijozlar operatsiyalarini monitoring qilish va o‘rganish;
  - vakolati organ va/yoki xalqaro tashkilotlar va/yoki davlatlarning ularga nisbatan sanksiyalari mavjud jismoniy va yuridik shaxslarni aniqlash;
  - JDL/TMQK masalalari bo‘yicha «Xalik» Guruhi xodimlarini o‘qitish va tayyorlash dasturi.

## **10-bob. Insayder ma'lumotlaridan noto‘g‘ri foydalanish va bozorni manipulyatsiya qilishning oldini olish**

28. «Xalik» Guruhi insayderlik ma'lumotlaridan foydalanishni tartibga soluvchi Qozog'iston Respublikasi qonunchiligiga va xorijiy qonun hujjatlariga rioya etilishini, shuningdek, ishbilarmonlik obro'si darajasini oshirish, korporativ boshqaruvning yuqori darajasini va «Xalik» Guruhi faoliyati barqarorligini ta'minlashni belgilaydi.

29. Shu maqsadda insayderlik ma'lumotlari ro'yxatini belgilaydi, Bankning va Bankning sho'ba korxonalarining va ularga nisbatan Bankni insayder sifatida tan olingan holda insayderlik ma'lumotlariga ega bo'lgan boshqa yuridik shaxslarning insayder ma'lumotlarini tasarruf etish va ulardan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish tartibini belgilovchi ichki hujjat ishlab chiqadi, hamda, uni oshkor qilish tartibi va shartlari, insayderlar ro'yxatini yuritish, insayderlar uchun o'rnatilgan cheklavlarni, shuningdek, insayder ma'lumotlarini oshkor qilish uchun javobgarlikni belgilaydi.

## **11-bob. Yakuniy qoidalar**

30. Ushbu ichki me'yoriy hujjat bilan ko'rib chiqilmagan/tartibga solinmagan masalalar tegishli ichki qoidalar va «Xalik» Guruhi kompaniyasi joylashgan davlat qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

31. «Xalik» Guruhi kompaniyasining mansabdar shaxslari va xodimlari ushbu ichki me'yoriy hujjatni bajarmaganliklari va (yoki) lozim darajada bajarmaganliklari uchun «Xalik» Guruhi kompaniyasining joylashgan joyidagi qonun hujjatlariga, mehnat shartnomasiga va ichki hujjatlarga muvofiq javobgar bo'ladilar.

32. Ushbu hujjatning mazmuni ichki hujjatlarda belgilangan tartibda «Xalik» Guruhi xodimlariga yetkaziladi.